



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqni saqlash vazirligi
www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi
www.tma.uz

day, the acute inflammatory reaction of the liver gradually subsides, and on the 15th day of the experiment, the fullness of the liver vessels, the degenerative changes in the hepatocytes and the phenomena of inflammatory infiltration of the portal tracts are significantly reduced.

References.

1. Saidov A.B. Sajifutdinova Z.A., Karimov X.Y. Mekhanizmy narushenij pri toksicheskom povrezhdenii pcheni i puti ik korrektsii s pomoshcju novogo aminokislotnogo rastvora na osnovre sukcinata natrija i mannitola // Nazariy va klinik tibbiyot jurnal. – 2021. -№3. –c. 7-10.
2. Kurbonova Z.Ch. Yuldasheva N.B., Zokirova N.B. Fastokin pestisidini oshqozonga ta'sirini o'rganish // Biofizika va biokimyo muammolari. Toshkent, 2021. –B. 26-27.
3. Kurbonova Z.Ch Zokirova N.B. Ostanaqulov Sh.F. Fastokin pestisidini jigarga ta'sirini o'rganish // Biofizika va biokimyo muammolari. Toshkent, 2021. –B. 19-20.

QON KOMPONENTLARIDAGI GEMOTRANSMISSIV INFEKSIYALARING LABORATOR TASHXISI.

**Saidov.A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E.
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi**

Qon komponentlari xavfsizligi transfuziologiyaning ajralmas qismi bo'lib, donorlarni tanlash bo'yicha tadbirlar, donor qonining xavfsizligini oshiradigan texnologiyalar, gemotransmissiv infektsiyalarni sifatli laborator diagnostikasi, shuningdek qon tarkibiy qismlardan oqilona klinik foydalanishdir. Parenteral yo'l bilan yuqadigan infektsiyalarning asosiy qo'zg'atuvchilarini inson immunitet tanqisligi viruslari (OIV) ning 1 va 2 turlari, shuningdek gepatit B (HBV) va gepatit C (HCV) viruslari hisoblanadi. Deyarli 40 million odam OIV infeksiyasi bilan yashamoqda [1, 2], 248 million kishi HBV surunkali infeksiyasi bilan kasallangan [3] va 110 million odamda HCV ga qarshi antitanachalar mavjud bo'lib, ulardan 80 millionida faol replikatsiya bosqichidagi viruslar mavjud [4]. OIV infektsiyasi bilan taqqoslaganda, virusli gepatit B 6-7 marta, virusli gepatit C 3 marta ko'p uchraydi. Gepatit B (HBV) va gepatit C (HCV) viruslari o'xshash klinik ko'rinishiga qaramay, bir qator tub farqlarga ega. O'tkir gepatit o'tkir jigar shikastlanishi va zaharlanish alomatlari bilan kechib, sariqlik paydo bo'lishi, kasallikning kuchli klinik ko'rinishlari namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi va qon zardobida aminotransferaza faolligining keskin oshishi bilan xarakterlanadi [5].

Tadqiqot maqsadi. 2019-yil mobaynida qon komponentlarida infeksion kasalliklarning retrospektiv tahlilini o'tkazish.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI. 2019-yilda Respublika miqyosida qon komponentlarini OIV, Gepatit B va C, zaxm va Brutsellyoz kasalliklariga tekshirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida 200444 ta qon komponentlari tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, OIV infeksiyasi bilan zararlangan komponentlar 275 (0,14%) tani, gepatit B virusi bilan zararlangan komponentlar 6963 (3,4%) tani, gepatit C virusi musbat natijasi 1465 (0,73%) tani, zaxm kasalligi 2115 (1,05%) tani, brutsellyoz kasalligi 813 (0,40%) tani tashkil etgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, 200444 ta qon komponentlardan 11 631 tasi gemotransmissiv infeksiyalar bilan zararlangan deb topilgan va o'rnatilgan tartibda yo'q qilingan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, donor qoni va uning tarkibiy qismlari orqali gemotransfuzion infeksiyalarni yuqtirish ehtimoli bor, chunki yuqumli kasalliklarni to'liq yo'q qilishga kafolat yo'q. Shu bilan birga, qon quyishning infekzion xavfsizligini yaxshilash bo'yicha bir qator tadbirlar mavjud. Turli bosqichlarda olib boriladigan tadbirlar tabiat jihatidan ham, resurslar va mehnat xarajatlari jihatidan ham sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mavjud barcha chora-tadbirlar bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi va qon va uning tarkibiy qismlarini quyish infekzion xavfsizligini oshirishning umumiyligini tizimini yaratadi.

Adabiyotlar.

1. Global health sector response to HIV, 2000-2015: focus on innovations in Africa: progress report. Geneva: World Health Organization; 2016.
2. Stover J., Andreev K., Slaymaker E. et al. Updates to the Spectrum model to estimate key HIV indicators for adults and children. AIDS.2014; 28: 427-34.
3. Schweitzer A., Horn J., Mikolajczyk R.T. et al. Estimations of worldwide prevalence of chronic hepatitis B virus infection: a systematic review of data published between 1965 and 2013. Lancet.2015; 386: 1546-55.
4. Blach S., Zeuzem S., Manns M. et al. Global prevalence and genotype distribution of hepatitis C virus infection in 2015: a modelling study. Lancet Gastroenterol Hepatol. 2017; 2(3): 161-76.
5. Yushchuk N.D., Klimova E.A., Znoiko O.O. i dr. Protokol diagnostiki i lecheniya bol'nykh virusnymi hepatitami V i S. Ros zh gastroenterol, hepatol, koloproktol. 2010; 20(6): 4-60.

EKSPERIMENTAL TOKSIK GEPATITDA ENDOGEN INTOKSIKATSIYA OMILLARI

**Sayfutdinova Z.A., Muhammadiyev H.G'.Xashimova G.Y, Yusupov B.N.
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Kritik sharoitlarda metabolic reaksiya, metabolizmning barcha turlarining buzilish mexanizmlarini tushunish, giperkatabolizmning shakllanishi, gipermetabolizm va to'qimalar almashinuvi buzilishlarining rivojlanishi haqidagi zamnaviy g'oyalar metabolic gomeostaz va hujayralarga ta'sir ko'rsatadigan moddalardan foydalanish zarurligini aniqlaydi. Bundan tashqari, toksik hepatitning